

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

TOIROVA ZUBAYDA OMONGALDIYEVNA

**POETIK TALQIN MODUSIDA RAMZIYLIK VA IJODIY INDIVIDUALLIK
KONSEPSIYASI
(Asad Dilmurod ijodi asosida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Toirova Zubayda Omongaldiyevna

Poetik talqin modusida ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasi (Asad Dilmurod ijodi asosida).....5

Тоирова Зубайда Омонгалдиевна

Концепция символичности и творческой индивидуальности в модусе поэтической интерпретации (на материале творчества Асада Дильмурода).....27

Toirova Zubayda Omongaldievna

The concept of symbolism and creative individuality in the mode of poetic interpretation (based on the work of Asad Dilmurod).....55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 59

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

TOIROVA ZUBAYDA OMONGALDIYEVNA

**POETIK TALQIN MODUSIDA RAMZIYLIK VA IJODIY INDIVIDUALLIK
KONSEPSIYASI
(Asad Dilmurod ijodi asosida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fil6078 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasining www.urdu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sariyev San'atjon Matchonboyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Matyoqubova Tozagul Rajapovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Otajonova Manzura Omanboyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "7" may soat 11:00 soatdagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862)224-67-00; faks: (+99862) 224-67-00 e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ ~~D~~-976 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "17" aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil "17" aprel dagi 88 raqamli reyestr bayonnomasi)



D. Q. G'ayipov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

S. S. Atajanov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A. I. Primov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy matnni poetik talqin qilish, undagi ramziy qatlamlarni ochish hamda ijodkor shaxsining individual estetik konsepsiyasini aniqlash muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Global dunyo qiyofasi ham shaklda, ham mazmunda, ham ifoda usulida yaxlitlashishi roman kompozitsiyasida ham ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, poetik tafakkurda ramziylikning funksional va semantik imkoniyatlarini o‘rganish, uning ijodiy individuallik bilan uzviy bog‘liqligini tadqiq etish badiiy tahlilning chuqurlashuviga xizmat qiladi. Ramz faqat badiiy bezak emas, balki poetik talqin modusi sifatida namoyon bo‘lib, muallifning ijodiy individualligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylangani barchamizga ma‘lum. Shu ma‘noda, ramziy obrazlar orqali muallif dunyoqarashi, estetik ideali va falsafiy mushohadalarini aniqlash masalasi bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Dunyo nasrida roman janri badiiy takomiliga oid vositalarning vazifaviy ahamiyati adabiy-estetik hodisa sifatida yondashishga bo‘lgan urinishlar mahorat bilan ochib berilmoqda. Muayyan xalq va millat ma‘naviyatidan oziqlanish jarayonidagi birlamchi xususiyatlar shaklining mazmunga, mazmunning shaklga o‘tib turishi, yangicha talqinga intilish hissining ustuvorligini ham yuzaga chiqishiga imkon yaratmoqda. Kompozitsion qoliplash, meta rivoyatlar, mavhum tushunchalarning teran tuyg‘ular idrokida ifodalanishi, romanga xos adabiy unsurlarning ham poetik talqinlarini barqarorlashtirib, ichki siljishlarning tashqi muhit bilan moslashuvchanligiga qarab belgilanmoqda. Ayniqsa, romanda syujet va kompozitsiya uyg‘unligi hamda psixologik talqin birikuviga evrilishi dunyo adabiyotida yangidan yangi asarlarning yaratilishiga sharoit hozirlab bermoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida mazkur tadqiqot poetik talqin modusi doirasida ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasini tahlil qilish orqali nafaqat Asad Dilmurod ijodining badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berishga, balki o‘zbek adabiyotshunosligida ramziy poetika, muallif uslubi va individual ijod konsepsiyasi masalalarini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Mustaqillik davri nasriy asarlarini tahlil qilar ekanmiz, ayniqsa o‘zbek romanlari an‘anadan sira uzoqlashmagan holda olam va odam taqdirini ramziy-metaforik talqin negizida qayta kashf qilish holatlari ko‘zga tashlanadi. Milliy romanchiligimiz asosi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridan yaqin yillarda yozilgan N.Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romaniga qadar bo‘lgan davr oraliq‘ida minglab badiiy asarlar yaratildi. Biroq asarning poetik yaxlitligi, yangiligi, badiiy durdonaning yashovchanligi ko‘p hollarda davr mahsuli sifatida adabiy hayotimizni o‘z-o‘zidan tark etdi. Ayniqsa, G‘arb-u Sharq an‘analari sarchashmalaridan oziqlangan, yangicha hayot haqiqatini aks ettirishga qaratilgan qanchadan-qancha asarlar nom-nishonsiz adabiy hayotimizdan o‘chib ketdi. Zero, “...adabiyot va san‘atga, madaniyatga e‘tibor – avvalo, xalqimizga e‘tibor, kelajagimizga e‘tibor”¹ ligi deganda, badiiy adabiyotning

¹ Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилар вакиллари билан учрашувдаги маърузаси// Халқ сўзи, – 2017 йил, 4 август.

yosh avlod tarbiyasidagi muhim o‘rin tutishi tushuniladi. Shu fikrdan kelib chiqqan holda, Asad Dilmurod ijodida ramziylik va individual poetik konsepsiyaning nazariy-estetik asoslari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF- 5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Poetika istilohi nafaqat adabiyotshunoslik, balki falsafa, etika, estetikaning doimiy muammosi sifatida diqqat markazida turgan masalalardan biri bo‘lib, jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida poetika istilohi janrlar kesimida o‘rganilgan². Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida ham asar badiiyati nazariy jihatdan muayyan darajada tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilingan³. Ayniqsa, roman badiiyati va uning o‘zaro qonun-

² Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б.151.; Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1979. – Б. 262.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1973. – С. 207.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Наука, 1979. – С.422.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л.: Наука, 1940. – С. 487.; Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – Москва: Наука, 1976. –С.484.; Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – С. 404.; Зис А. Искусство и эстетика.– Москва: Наука, 1967. –С. 214.; Загонский Д. Искусство романа и XX век. – Москва: Наука, 1973. –С. 229., Лукич Д. Теория романа. –Варшава, 1963., Ковалев А.Г. Психология литературного творчества. –Л.: ЛГУ, 1960.; Мейлах М.Б. Талант писателя и процесс творчества. –Л.: 1969.; Тимофеев Л. Основы теории литературы.– Москва: Просвещение, 1966. – С. 478.; Поляков М.Я. Вопросы поэтики и художественной семантики. – Москва : Советский писатель, 1986. – С. 480.; Поспелов Г. Теория литературы. – Москва : Высшая школа, 1978. – С. 351.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика.– Москва : Советский писатель, 1976. – С. 396.; Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. –М-Л. Наука, 1930. – С. 225.; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Наука, 1970. – С.266.

³ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент.:Ўқитувчи, 1986. – Б. 408; Назаров Б. Бу сеҳрли дунё.– Тошкент.: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 176; Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас – Тошкент.: Ёш гвардия, 1983. – Б. 216; Мирвалиев С. Ўзбек романи.– Тошкент.: Фан, 1969., Мирвалиев С. Роман ва замон.– Тошкент.: Фан, 1983. Қўшонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдик. Биринчи жилд.–Тошкент: Фан, 1991. –Б. 299-382; Каримов Н. Ойбек.– Тошкент.: Ёш гвардия, 1985; Норматов У. Насримиз тамойиллари.– Тошкент.: Адабиёт ва санъат, 1978; Норматов У. Умидбахш тамойиллар.–Тошкент: Маънавият, 2000; Умутов Х. Бадий ижод асослари.–Тошкент: «Ўзбекистон» 2001; Солижонов Й. Нутқ ва услуб.–Тошкент: Чўлпон, 2002; Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик. –Тошкент: Фан, 1994; Мирзаев И. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услубий ранг-баранглиги. – Тошкент: Фан, 1983; Жўраев Т. Онг оқими модерн. – Фарғона, 2009. – 203 б., Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 546 б.; Ёкубов И. Бадий-эстетик сўз сеҳри. –Тошкент: TVDPU. 2011. 654 б., Каримов Х. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: Миллий кутубхона, 2008. – 122 б., Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент:

qoidalari borasida shakllangan hamda adabiy iste'moldagi xususiyatlari davrlarning o'zgarishi natijasida muayyan yangi ta'riflarni yuzaga kelishiga imkon tug'dirmoqda. Masalan, o'zbek modern romanchiligi badiiyati hali tor adabiy doirada bildirilgan mushohada, tavsivaviy xarakterdagi bahs-munozaralar bilan cheklanadi, xolos. Yaxlit shakl doirasida bildirilgan nazariy mulohazalar unchalik chuqur ildiz otgani yo'q. Biroq keyingi yaratilayotgan noan'anaviy romanlar alohida tadqiqotni talab qiladiki, bu o'z navbatida, badiiyat mohiyatidagi yozuvchi ideali va niyati, maqsad-u maslagi, inson taqdiriga daxldor muhim hukmfarmo mushohadani hal qilishni taqozolaydi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida ijodiy individuallik va adabiy-estetik qarashlar uyg'unligi masalalarining tadqiqiga diqqat qaratilmoqda. M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Boltaboyev, I.Haqqulov, Q.Qahramonov, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, U.O'ljaboyev, U.Jo'raqulov, B.Karimov, I.Yoqubov, A.Ulug'ov, M.Qo'chqorova, D.Xoldorov, A.Xamroqulov kabi turli avlodga mansub adabiyotshunoslarning ilmiy izlanishlarida mazkur masalaning u yoki bu qirrasini tadqiq etilgan⁴. "Ijod mashaqqati" nomli kitobda A.Qodiriyning badiiy ijod haqidagi qarashlari jamlandi. O'.Nosirovning "Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi", "Ijod mashaqqati", H.Umurovning "Badiiy ijod asoslari" kabi risola va qo'llanmalarida ham ijodkor shaxs, iste'dod, ijodiy jarayon, ijod psixologiyasiga oid muhim kuzatishlar aks etdi.

Asad Dilmurod ijodida muallif shaxsiyati va ijodiy oziga xoslik haqida N.Dilmurodova tadqiqot olib borgan⁵. Asad Dilmurod o'z ijodiy tajribalari va adabiy jarayonda kechayotgan o'zgarish va yangilanishlarni sinchkov kuzatishlari asosida bir qator maqolalar yozdi. Yozuvchining "Tuyg'u va tafakkur birlashadigan o'zan"⁶, "So'z olami tovlanishlari" nomli maqolalari fikrimizni dalillaydi. Adib adabiyotshunos olimlar bilan adabiy suhbatlar o'tkazgan. Jumladan: Majoziylik va

2004. –127 б.; Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001. –166 б., Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. –Тошкент: Akademnashr, 2016. –224 б., Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – 222 б., Дўстмуҳаммад Х. Концепцияни янгилаш учун...// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1990. – 16 феврал., Тўраева Б. Бадий замон концепциясининг ўзбек адабиётшунослигида ўрганилишига доир // Илмий хабарнома. –AnDU, 2018. -№1., Отабой А. Онг оқими // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1997. –№ 4., Солижонов Й. Ўзбек полифоник романлари // Ўзбек тили ва адабиёти. Илмий журнал. – Тошкент, 2002. №5.

⁴ Қодирий А. Ижод машаққати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995 – 16 б; Шарафиддинов О. Чўлпон. – Тошкент: Шарк, 1991. – 112 б; Қўшжонов. М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент: Халқ мероси, 1994. – 136 б; Каримов Н. Чўлпон. Маърифий роман. – Тошкент: Шарк, 2003. – 124 б; Норматов У. Нафосат гурунглари. – Тошкент: Мухаррир, 2010. – 389 б; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарк, 2007. – 336 б; Болтабоев Х, Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи (1-жилд) – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. – 400 б; Ҳаққулов И. Ижод иклими. – Тошкент: Фан, 2009. – 394 б; Қахрамонов Қ. Адабий танқид: янгилашиш жараёнлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 184 б; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 546 б; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарк, 2004. – 287 б; Ўлжабоев У. Замон талаби ва ижодкор масъулиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 376 б; Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – 203 б; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2016.– 362 б; Ёқубов И. Бадий матн ва эстетик талқин. – Тошкент: Фан ва технология, 2013.– 152 б; Қўчқорова М. Бадий сўз ва рухият манзаралари.– Тошкент: Мухаррир, 2011.– 232 б; Холдоров Д. Ижод моҳияти – услуб ҳосияти. Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – 160 б; Хамроқулов А. Ўзбек адабиётида Маҳмуд Торобий кўзғолонининг бадий талқини. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 128 б.

⁵ Dilmurodova N. Asad Dilmurod ijodida muallif shaxsiyati va ijodiy tutum uyg'unligi. Filol.fan.b.fals. dok. diss... – Toshkent, 2025.

⁶ Dilmurod A. Tuyg'u va tafakkur birlashadigan o'zan// Yoshlik. 2010 yil, 10 (239)-son. Dilmurod A. So'z olami tovlanishlari// Zarafshon, 2007 yil 20 sentyabr.

hissiy tafakkur (Ahmad Otaboy bilan suhbat)”⁷, “Tarixiy me’yor va estetik mas’uliyat” (Dilnoza To’rayeva bilan suhbat) lar shu jihatdan e’tiborlidir.

Shuningdek, Asad Dilmurod hayoti va ijodi haqida professor Qozoqboy Yo’ldoshevning “Xayolot va hayot manzaralari”⁸, Mahkam Mahmudovning “Mahmud Torobiy – xalq xoloskori”⁹, Islomjon Yoqubovning “Roman to’qimasida analitik folklorizmlar”, “Tarixiy haqiqat va badiiy talqin”, “Marsel Prust va Asad Dilmurod ijodiy konsepsiyalari”, “Armonsiz kun suluvdir” kabi maqolalari, “Badiiy matn va estetik talqin” monografiyasi nashr etilgan¹⁰. N.Dilmurodovanning vaqti matbuotda chop etilgan maqolalarida va dissertatsiyasida ham ushbu mavzu muayyan darajada yoritilgan¹¹. Bu kabi nashrlar Asad Dilmurod ijodiy shaxsi va asarlari o’zaro uyg’unlikda tahlil va talqin etilgani, jahon adabiyoti namunalari bilan qiyoslangani bilan bir qatorda, yozuvchining nazariga tushgani, adib ular bilan tanishgani jihatidan ham qimmatlidir.

Ko’rinadiki, mazkur tadqiqot zamonaviy o’zbek nasrida poetik talqin modusida ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari, ularni yuzaga keltirgan ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy omillar, adabiy matn mazmuniga g’arb adabiyoti ana’analari sintezining yozuvchi dunyoqarashi bilan aloqadorlikda yuzaga chiqishi, xususan, Asad Dilmurod poetik talqini modusida ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasi maxsus tadqiq qilinmagan. Ammo, mavjud tadqiqotlar ushbu muammoni o’rganishda nazariy-metodologik asos vazifasini o’taydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi. Dissertatsiya ishi Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq “O’zbek tili va adabiyoti” kafedrasining “Zamonaviy o’zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon” mavzusidagi tadqiqot yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy o’zbek nasrida ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasining badiiy-estetik asoslarini aniqlash, yozuvchi Asad Dilmurodning badiiy mahoratini asarlaridagi ramziy obrazlar tizimi orqali muallif poetik tafakkurining o’ziga xos jihatlarini ochib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

– poetik talqin modusi, ramziylik va ijodiy individuallik tushunchalarining

⁷ Dilmurod A. Majoziylik va hissiy tafakkur. (Ahmad Otaboy bilan suhbat)// O’zAS, 2017 yil 22 sentyabr. 39 (4437) - son. Dilmurod A. Tarixiy me’yor va estetik mas’uliyat (Dilnoza To’rayeva bilan suhbat)// Ijod olami. 2018 yil, 3-son. (Dilnoza To’rayeva “Mezon burji” qissasi hamda “Pahlavon Muhammad” romanlari yuzasidan ham adib bilan alohida-alohida suhbatlar o’tkazgan.)

⁸ Йўлдошев Қ. Хаёлот ва ҳаёт манзаралари // ЎзАС, 2017-йил 22-сентябрь. 39(4437)-сон.

⁹ Маҳмудов М. Маҳмуд Торобий – халқ холоскори // Мулоқот, 2000. 6-сон, – В. 51-52.

¹⁰ Ёқубов И. Роман тўқимасида аналитик фольклоризмлар // Илм сарчашмалари. 2005, 1-сон. – Б. 37-38. Ёқубов И. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин // Ўбек тили ва адабиёти. 2008, 4-сон, –Б.30-38. Yakubov I. Literariy-aesthetic conception of M. Prust and A. Dilmurod Przemys’l Nauka I studia. 2013. – P. 29-32. Ёқубов И. Армонсиз кун сулувдир// ЎзАС. 2016, 10 июнь. Ёқубов И. Бадий матн ва эстетик талқин. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2013. – 149 б.

¹¹ Dilmurodova N.A. Сўз бағридаги нажотбахш ёғду. Шарқ юлдузи. – Тошкент: 2024, №4. – В.168-173; Adabiy shaxsiyat, ijodiy tadrij va adabiy-tarixiy manba// *Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi*. Xiva. 2024, №10. – В. 62-65; Asad Dilmurod nasrida tarixiy haqiqat va badiiy talqin. O’zMU xabarlarlari. – Toshkent: 2024, №2. – В. 258-260; Asad Dilmurod estetik ideali // Science time Journal (Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari) – Nukus. 2023, may. – В. 69-76; Asad Dilmurod estetikasining ayrim qirralari// “Sharq G’arb adabiyotida gumanizm: Navoiy va Pushkin” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.Toshkent: 2024, 25-aprel. – В 655-666. Asad Dilmurod nasrida muallif shaxsiyati va ijodiy tutum uyg’unligi. Filol.fan.b.fals. dok. diss... – Toshkent, 2025.

adabiyotshunoslikdagi nazariy talqinlarini tizimli tahlil qilish;

– an’anaviy roman tadrijiy rivojlanish bosqichlarini va g’oya, mavzu, syujet, kompozitsiya yaxlitlashuvining ilk ildizlari hamda poetika qonuniyatlarini zamonaviy ilmiy-nazariy ta’riflar bilan boyitish;

– Asad Dilmurodning mifik qatlam negizida yangicha obraz yaratish, uning yashovchanlik mavqeyini aniqlashda antik yunon madaniyatidan oziqlanishini, jahonning ilg’or adabiy tajribalaridan unumli foydalangan holda yuzaga kelgan noan’anaviylik talqinini aniqlash;

– Asad Dilmurod ijodida F.Kafka ta’siri va o‘zbek nasrida yangicha ifoda shakllarini sintez qilish mahorati hamda g’arbona tasvir usullarining milliy ruhiyatimizga mos tarzda ifodalash tamoyillarini tadqiq qilish;

– Asad Dilmurod poetik izlanishlarida modern va postmodernizm adabiy oqimining yaxlit tarzda kechishi, milliy qahramon yaratishdagi folklor motivlaridan unumli foydalanish mahoratini, jumladan, ko‘chib yuruvchi darbadarlik syujetining mifopoetik qirralarining yuzaga chiqishida rivoyatlardan istifoda etish imkoniyatlarining ko‘p qirraliligini asoslash;

– Asad Dilmurod talqinlarida ixcham va sodda, murakkab va ramziy-majoziy tasvir prinsiplarining chuqurlashib, yanada o‘quvchining o‘ziga xos hukmfarmo tushunchasini kamol toptirishga yo‘naltirilgan ifoda negizining markaziy qirralarini dalillash orqali o‘zbek romanlari badiiyatini yaxlit organizm sifatida baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida “Fano dashtidagi qush” (2001), “Pahlavon Muhammad” (2006), “Rang va mehvar” (2015) kabi romanlari va “Xilvat” to‘plami tanlangan.

Tadqiqot predmetini yangi o‘zbek romanlari badiiyatini tahlil qilishda poetik ifoda tarzining o‘ziga xosligi har bir yozuvchi timsolida maxsus tadqiq qilishda yuzaga kelgan sabab va oqibatlari bilan bog‘liq adabiy istiloh ekanligi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritish jarayonida qiyosiy-tarixiy, madaniy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik, psixoanalitik, struktural tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

poetik talqin modusida ramziylik va ijodiy individuallik xususiyatlari Asad Dilmurod ijodining tahlil qilinishi asnosida, mazkur jihatning zamonaviy o‘zbek adabiyotiga ta’siri masalasi va bu tushunchalarining nazariy talqinlari ilmiy muammo sifatida ochib berilgan;

yozuvchi romanlaridagi shakliy va mazmuniy o‘zgarishlar ilk o‘zbek romani va hozirgi modern romanlar negizida shakllangan bo‘lib, adib asarlarining adabiy jarayonda tutgan o‘rni va roli, noan’anaga o‘tish bosqichlari aniqlanib, romanlari badiiyati, syujet va kompozitsiya birligi, xarakter yaratishdagi mahorati, falsafiy mushohada teranligi, jahoniy mifik obrazlarning yangicha talqini, matn tarkibi va tasvir tabiati aniqlangan;

romanlardagi mavzu va g’oya, shakl va mazmun birligi har bir ijodkorda kechadigan alohida hodisa ekanligi yoritilib, tashqi adabiy ta’sirning ijodkor poetik tafakkurida namoyon bo‘lishi, o‘zbek romani badiiyati asosida shakllangan yozuvchi asarlarining romaniy tafakkur yangilanishiga qo‘shgan hissasi, janr o‘zgarishiga olib kelgan poetik izlanishlari dalillangan;

badiiy makon va zamon muammosining modern romanda ro‘y berish vaqti hamda ijodkor mahoratining nechog‘li ko‘p qirraliligi, falsafiy-estetik tamoyillar kanonlari qiyosan asoslangan.

Dissertatsiyaning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XX asr ibtidosi XXI asr birinchi yarmidagi qariyb yuz yillik romaniy tafakkur salmog‘ining ijtimoiy, falsafiy, psixologik, estetik, poetik omillarini tahlil va tadqiq qilish natijasida chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangidan yangi tushunchalar berishi, adabiyotda romanchilik tarixi, roman nazariyasi kabi fanlarning yaratilishida, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi. Shu ma‘noda, “Yangi O‘zbekiston”ning strategik va istiqbolli rejalari zamon bilan hamnafas o‘quvchi dunyoqarashiga to‘laligicha ma‘naviy-ma‘rifiy bilimlarni singdirishida muhim manba bo‘lishi ifodalanadi.

Asad Dilmurodning poetik mahoratini aniqlash alohida bir ilmiy muammo ekanligi va individual ijodkor dunyoqarashining milliy ruhiyatni tarbiya qilishga qaratilgan o‘tkir falsafiy-estetik qo‘llanmasi, badiiy matn tahlilida hal qilingan xulosalar, farqli va o‘xshash tomonlar uslubiy evolyutsion jarayondan iboratligi belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning tavsiflash, biografik, kontekstual va struktural tahlil usullari kabi usullar bilan asoslangani, nazariy fikr-xulosalar tavsiflash usuli asosida chiqarilgani, ishonchli nazariy manbalar hamda adabiyotshunoslikka oid lug‘atlardan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, izlanish xulosalari nafaqat o‘zbek nasrining hozirgi davri, balki tarixiy taraqqiyotida yuz bergan shakliy-uslubiy, janr va kompozitsiya jihatdan ham yangilangani haqidagi nazariy bilimlarni to‘ldiradi va kengaytiradi. Zamonaviy roman janrining yetakchi xususiyatlarini belgilashda adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiy tanqid tarixi, yangi o‘zbek adabiyoti fanlarining rivojlanishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ushbu dissertatsiya ishi materiallaridan ta‘limning turli bosqichlarida, xususan, oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs yoki seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, umumiy o‘rta ta‘lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘qitiladigan adabiyot darslarida, shuningdek, mavzuga oid darslik, qo‘llanma va risolalar yaratishda material bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Poetik talqin modusida ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasi (Asad Dilmurod ijodi asosida)” tadqiqotidan olingan ilmiy va amaliy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

Poetik talqin modusida ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasi Asad Dilmurod ijodi mavzusidagi tadqiqot natijalari va materiallaridan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan PF 201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tili (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 27-iyundagi

01/01-2804-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, yozuvchi romanlaridagi shakliy va mazmuniy o'zgarishlarning rivojlanish bosqichlari, ilk o'zbek romani va hozirgi modern romanlar negizida adabiy jarayonda tutgan o'rni va roli, noan'anaga o'tish bosqichlari kontekstida ochib berilishi, yozuvchi romani badiiyati, syujet va kompozitsiya birligi, xarakter yaratishdagi mahorati, falsafiy mushohada teranligi, jahoniy mifik obrazlarning yangicha talqini, shakliy ixchamlik hamda pafos zarbi, badiiy nutq ishlanganligi, matn tarkibi va tasvir tabiati aniqlanishining dalillanganligiga doir xulosa va tavsiyalari loyiha doirasida yaratilgan ko'p tili (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformaning mukammallashuviga xizmat qilgan;

“Poetik talqin modusida ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasi (Asad Dilmurod ijodi misolida)” mavzusida tayyorlangan dissertatsiyasi natija va xulosalaridan davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023–2024-yillarda bajarilgan AL-662205561 raqamli “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 9-iyuldagi 01/4-3026-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, yozuvchi romani badiiyati, syujet va kompozitsiya birligi, xarakter yaratishdagi mahorati, falsafiy mushohada teranligi, jahoniy mifik obrazlarning yangicha talqini, shakliy ixchamlik hamda pafos zarbi, badiiy nutq ishlanganligi, matn tarkibi va tasvir tabiati aniqlanishi, mavzu va g'oya, shakl va mazmun birligi har bir ijodkorda kechadigan alohida subyektiv kategoriya ekanligi, tashqi ta'sir amaliyotining ichki ta'sirda ro'y berish vaziyati dalolatlanishi, badiiy makon va zamon muammosining modern romanda ro'y berish vaqti hamda ijodkor mahoratining nechog'li ko'p qirraliligi, falsafiy-estetik tamoyillar kanonlari qiyosan tahlil qilinishi haqidagi xulosalaridan loyiha ishini bajarishda foydalanildi;

dissertatsion tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy natijalardan Xorazm viloyati teleradiokanali tomonidan tayyorlangan 2025-yil 20-maydagi “Assalom, Xorazm!” dasturlarida hamda Xorazm radiosining “Xayrli kun” eshittirishida foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokanalining 2025-yil 11-iyundagi 427-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek romani badiiyati asosida Asad Dilmurod olami, romaniy tafakkur yangilanishiga qo'shgan hissasi, janr o'zgarishiga olib kelgan poetik izlanishlari, adabiy jarayon kontekstida tadqiq va tahlil qilish bo'yicha fikr-mulohazalar yosh olimlar dunyoqarashi, bilim darajasi va tasavvurini kengaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika, 2 ta xalqaro ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Asad Dilmurod va hozirgi o‘zbek romanchiligi**” deb nomlanadi. Ushbu bobning “*Yozuvchi ijodi va hozirgi o‘zbek adabiy tanqidchiligi*” sarlavhali birinchi faslida yangi o‘zbek adabiyotini o‘zining hikoyalari, romanlari, qissalari bilan boyitib kelayotgan taniqli va mahoratli yozuvchi Asad Dilmurodning bugungi adabiy jarayonda salmoqli o‘rinni egallagani haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Yozuvchi ijodi va o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining turli bosqichlaridagi adabiy tanqidchilik xususida bahs yuritilgan.

XX asr o‘zbek adabiyotining 20-yillarida boshlangan adabiy-estetik o‘zgarishlar davomiyligi shu paytgacha birdaniga rivojlanib ketgan emas. A.Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Oybek, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, S.Ahmad, A.Muxtor, P.Qodirov, O.Yoqubov, O‘.Umarbekov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Hoshimov singari betakror adiblar badiiy izlanishlarida nasrning umume’tirofdagi adabiy mezonlar negizida shakllanib, barqarorlashib borayotganining guvohi bo‘lish mumkin. Mazkur avlod xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy sohalarida matonat bilan xizmat qildilar. Ko‘pchilik yozuvchilar sobiq ittifoq davrida fikriy bo‘g‘ilgan, erki, ijodi toptalishiga qaramay umrini adabiyotga, ijodga bag‘ishladilar. Ularni ijod atalmish ajib bir mo‘jaz koshona mudom o‘ziga ohangrabodek jalb qilib, halol umrini badiiy san’atga darj etdilar. 70-yillarga kelib badiiy nasr takomilida yangi-yangi nomlar paydo bo‘la boshladi. Jumladan, M.M.Do‘st, E.A’zam, T.Murod, X.Davron, A.A’zam, A.Dilmurod, N.Norqobilov, shuningdek mustaqillikdan keyin T.Rustamov, N.Eshonqul, Sh.Hamro, A.Yo‘ldoshev, L.Bo‘rixon singari adiblarning adabiy jamoatchilikda muhim o‘rin egallashi fikrimizning yorqin dalilidir.

Ushbu faslda adabiy jarayonda yangicha badiiy talqin nafasi paydo bo‘lganiga diqqat qaratilgan. Yangi nasr badiiy takomilida sezilarli darajada yangilanishlar: G‘arb-u Sharq an’analarini ustalik bilan o‘zlashtirib, L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, F.Kafka, J.Joys, A.Kamyu, E.Xeminguey, O.Balzak, Stendal kabi jahon adabiyoti namoyandalari xazinasiga yaqinlashish va ulardan uslubiy-shakliy jihatdan ta’sirlanish avj pallasiga ko‘tarildi. XX asrdagi falsafiy-estetik g‘oyalarga hamohanglik kayfiyati bo‘lg‘usi ijodkor Asad Dilmurodni ham chetlab o‘tgan emas. Ijodkorning o‘zi alohida ta’kidlaganidek: “*Badiiy ijodni qismat hisoblab, ijod sururi va nashidasi bilan baxtini to‘kis sanaydigan har bir kimsa kitob oldida burchli, kamina bo‘ynida ham uzish qiyin shunday qarz bor, agar hayotdan qaysidir darajada o‘rnimni topib, biron qadam ilgari bosgan bo‘lsam, bari shu sodiq do‘stu yor ko‘magida amalga oshganini jonu dilim bilan e’tirof etaman*”¹².

¹² Asad Dilmurod. Tуйғу ва тафаккур бирлашадиган ўзан. // Ёшлик. 2010 й. №10. (239). – Б. 2-5.

Shu ma'noda, adib o'z davrining farzandi bo'lishi bilan bir qatorda, jamiyat hayotidagi uzil-kesil o'zgarishlarni ham vaqtida teran anglab, o'zlashtirib borishi tayin. Adib asarlarini o'rganishda shartli ravishda ikki davrga bo'lib baholash ishonchni oqlaydi:

1) 70–90-yillarda adib izlanishlarida shakliy-uslubiy izlanishlar badiiy takomili;

2) *Istiqlol davri adabiyotida Asad Dilmurodning tutgan o'rni.*

Bu tasniflash nisbiy bo'lib, qiyosiy-tipologik yo'sinda ham guruhlashtirish mumkin. Masalan, A.A'zamning 2010-yilda nashr qilingan "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" nomli romani voqelikni ifoda qilish strukturasi yuzasidan Asad Dilmurodning "Rang va mehvar" romaniga juda o'xshash. Har ikkala roman ham ifodaviylik nuqtayi nazaridan modernistik yo'nalishga oid ong osti oqimini yodimizga soladi. Shu jarayonda o'ziga xos usul topish uchun yozuvchidan qanchalik matonat va mehnatni talab qiladi. Asad Dilmurod fenomeni alohida ilmiy tadqiqot sifatida hali to'laqonli o'rganilgan emas. Shu ma'noda, yangicha nazariy-ilmiy qarashlar negizida tadqiq qilish hozirgi adabiy jarayondagi mavjud ilmiy muammolarning barham topishiga hissa bo'lib qo'shiladi. Mazkur faslda yozuvchi ijodi va hozirgi o'zbek tanqidchiligi masalasini yoritish uchun ijodkorning asarlari tahlil qilingan. Ko'pchilik romanlari va ilk hikoyalarida muhit va jamiyat mavzusi yetakchilik qilgani asarlar tahlili orqali yoritilgan. Asad Dilmurodning ijodiy shaxsiyati, badiiy merosining tayanch manbalari aniqlangan. Badiiy nasrda inson ruhiy olami va ijtimoiy hayot muammolarini poetik tadqiq etish uslubi va mahorati "Narvon"¹³ hikoyasi tahlili orqali ochilgan. "Xufton", "Lahza", "Larza" singari hikoyalaridan asta-sekinlik bilan romaniy tafakkur salmog'ining ortib borishi adibning nasrdagi yutug'i sifatida yuzaga kelgan. "Xufton" hikoyasidagi tasvir yo'sini keyinchalik "Rang va mehvar", "Zarradagi olam" kabi romanlarida yanada o'ziga xos tarzda ifodalanganiga diqqat qaratilib, romanshunos olim I.Yoqubov fikrlari bilan dalillanadi¹⁴. Adib hikoyalarining aksar qismidagi kinoyaviy-parodik usul matn tarkibida yozuvchi yaratgan xarakterlarni bir-biriga solishtirish asnosida yanada ochilib boradi. Biroq adib matnda kinoyani haddan tashqari, ya'ni me'yordan ortiqcha tarzda qo'llamagani, yengil yumor faqatgina ayrim qahramonlarning qanday maqsadda ishtirok etayotganligini aniqlash uchun qo'llanilgan. "Xufton", "Ko'chki" kabi hikoyalarida bu holat anchayin yaxshi inkishof qilinganiga diqqat qaratilgan. Asad Dilmurod poetik izlanishlarida tasvirdagi ko'p qatlamlilik, murakkab tasvir vaziyatlari, qahramon irodasini imtihon qilish, shaxs ruhiyatini idroklash, muhit suvratini tasavvur qilgan holda yuzaga chiqarish manerasi asosiy o'rinni egallaydi.

Yozuvchining asarlarida milliy kolorit, xalqona ruh, qadriyatlar va zamon o'rtasidagi ziddiyatlar muhim o'rin tutishi, u o'z qahramonlarini ijtimoiy muhitdan ajratmagan holda, ularning ruhiy kechinmalarini jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda ochib berishi, shu bois uning har bir asarida o'zbek hayotining o'ziga xos nafasini, xalqona til boyligini sezish mumkinligi mazkur faslda yoritilgan.

¹³ Дилмурод А. Осмоннинг бир парчаси. Ҳикоя. – Тошкент: Ёш гвардия, 1978. – Б. 22-32.

¹⁴ Ёқубов И. Бадий матн ва эстетик талқин. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2013. – Б. 37-38.

Bobning ikkinchi fasli *“Tarixiy matn tabiatida badiiyluk modusi talqini”* deb nomlangan. Ushbu faslda 80-yillar nasri tarixni qayta hikoya qilishdan voz kechib, uni inson ruhiyati orqali anglashga intilgani haqida gap borib, aynan Asad Dilmurod ijodi o‘zbek tarixiy nasrida badiiyluk modusining yangicha talqinini namoyon etgan hodisa sifatida maydonga chiqqani tahlil qilingan.

Yozuvchining 2006-yilda nashr etilgan *“Pahlavon Muhammad”* romani tarixiy shaxs obrazini zamonaviy falsafiy yondashuv bilan uyg‘unlashtirgani bois adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otdi. Ta’kidlash o‘rinliki, ana shu yangilanish jarayonida Asad Dilmurod nomi o‘ziga xos fenomen sifatida alohida e’tirofga loyiqdir. Yozuvchi o‘z ijodining dastlabki bosqichidanoq tarixiy voqealarni ham, zamonaviy insonning ruhiy iztiroblarini ham birdek chuqur tahlil qila olgan va mavzu, g‘oya va tasvir uslubidagi dadilligi bilan e’tiborni tortgan.

Badiiy adabiyotda yuzaga chiqadigan har bir badiiy unurning tub mohiyati inson ruhiyatini, uning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilishga xizmat qiladi. Shaxsning kamoloti tashqi ko‘rinish yoki zohiriy suvratda emas, balki uning ichki dunyosi, botiniy kechinmalarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli Asad Dilmurod ham har bir davrda tarixning eng murakkab, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga boy manzaralarini inson ruhiyati prizmasidan yoritishga intilgan. XIV–XV asrlarda O‘rta Osiyoda Amir Temur vafotidan so‘ng yuz bergan siyosiy beqarorlik, hokimiyat uchun kurashlar, tabaqalanish va adolatsizliklar shunday insoniy fojealarning manbayi bo‘ldi. Bu davrda hatto shohlar, shoirlar va tarixchilar ham qarorlar qabul qilishda ruhiy tazyiq, ikkilanish va ma’naviy sinovlarni boshdan kechirdilar. Shu o‘rinda Alisher Navoiydek zakovatli zotning barqarorlikni tiklash yo‘lida olib borgan sa’y-harakatlari tarixiy manbalarda umid ramzi sifatida eslansa-da, mavjud ziddiyatlarning ildizi chuqur bo‘lgani bois ularni to‘liq bartaraf etish imkoni bo‘lmaganini ko‘ramiz.

Muallif bu romanida bir-biridan ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi va irodasi bilan farqlanuvchi obrazlarni yaratadi. U voqealar rivojini inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar bilan uyg‘un holda, oddiylikdan murakkablik tomon yuksalib boruvchi chiziqda tasvirlaydi. Asarda inson irodasining badiiy talqini o‘quvchini qahramonlarning ichki olamiga chuqur kirib borishga undaydi. Yozuvchi uchun asosiy maqsad tarixiy faktlarni takrorlash emas, balki Pahlavon Muhammad shaxsini ruhiy-murakkab kechinmalar, irodaviy mustahkamlik va ma’naviy qudrat timsoli sifatida ochishdan iborat. Shu jihatdan, roman nafaqat tarixiy, balki falsafiy-psixologik asar sifatida ham qadrlanadi.

Roman davomida Pahlavon Muhammad shaxsiga nisbatan Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro tomonidan ko‘rsatilgan cheksiz hurmat, mehr va sadoqat markaziy g‘oyaviy chiziqqa aylanadi. Bu munosabatlar orqali yozuvchi insoniy qadriyatlarining eng oliy darajasini — sadoqat, vafodorlik va donishmandlikni ulug‘laydi. Adib Navoiy asarlarida tilga olingan *“Holoti Pahlavon Muhammad”*, *“Majolis un-nafois”*, *“Vaqqiya”* kabi manbalarni chuqur o‘rganib, ularni ijodiy tahlil asosida qayta badiiy talqin etadi. Shu orqali u tarixiy haqiqatni takrorlamaydi, balki uni yangi ruhda, psixologik chuqurlik bilan qayta yarata oladi. Romanda ig‘vogarlar, chaqimchilar, hasadgo‘ylar fonida uch buyuk siymo — Pahlavon Muhammad, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlarining ruhiy balandligi, donishmandligi

va ichki yuksakligi yaqqol ko‘rinadi. Aynan shu ruhiy kartinalar asarning estetik va falsafiy qimmatini belgilaydi, o‘quvchini insoniyat mohiyati haqida mushohadaga chorlaydi.

Dunyo adabiyotshunoslari qarashlariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, faylasuf olimlar tomonidan taklif etilayotgan psixologizmning variantlari ham turli-tuman: subyektiv va obyektiv, puantistik va analitik, individuallashtirilgan va tipiklashtirilgan, lirik va dramatik”¹⁵ tamoyillarda yuzaga chiqayotgani joriy kunda yangi nasr strukturasi bo‘y ko‘rsatib ulgurdi. Fransiyalik Sharko, Z.Freyd, K.G.Yung singari ruhshunoslar inson irodasini turli xil “gipnoz” usullarida, san‘at hamda she‘r orqali qayta tadqiq qilib, alohida fanga asos solganligi barchamizga ma‘lum. Binobarin, yangi o‘zbek nasridagi freydizm yo‘nalishi inson irodasini, uning botini, ong va shuurini bandi qilgan holatlarni tasvirlash yo‘sinida alohida talqin barqarorlashuviga hissa qo‘shdilar. Buning yorqin misolida Asad Dilmurodning qator qissa va romanlarini ko‘rish lozim. Roman muqaddimasi noan‘anaviy bir tarzda boshlanadiki, adib qisqa tarixiy axborotida Sulton Husayn Boyqaro, Amir Alisherning chin do‘sti Pahlavon Muhammadning vafoti tasviri beriladi:

“Ana, kun botish tomonda, mevali-mevasiz daraxtlar qurshovida qad rostlagan g‘ishtin imorat qaysi bandaga qadrdon emas, binobarin, yil-o‘n ikki oy kimlarni bag‘riga chorlamaganu kimlar suhbatiga guvoh o‘tmagan. Endi u huvillab qolmish, qaysi bir xonasida esa shohu gado ko‘nglini birdek ovlab yashagan Pahlavon Muhammad Abusaid qilt etmasdan osuda yotdi. Qoni qochib so‘lg‘inlashgan betida birgina ma‘no zuhur: “Birodarlar, charchadim, hordiq tilarman!” Nahotki piri maydoniy sir-asrorga to‘la umrini shu kesatig‘ bilan yakunlagan bo‘lsa? Har holda u yetishgan saodat har kimga ham nasib etavermaydi-ku?”

Bo‘lmaga tutdek to‘kilib kirgan Sulton Husayn bilan Amir Alisher bir necha qavat baxmal ko‘rpachada betashvish va bezabon cho‘zilgan Pahlavon yonida jimgina cho‘kkalashdi. Notinch tepayotgan yuraklari beun nola chekardi: “Hey, do‘sti qadrdon, qoshingizga yukunib keldik, tura olmaysizmu!?” Koshki Pahlavoni olam biron-bir sasni eshitsa, koshki abadiylik uyqu yukidan kipriklarini ozod etsa!?”¹⁶.

Asad Dilmurodning “Pahlavon Muhammad” romanida adib qo‘llagan syujet qurilishi va kirishuv usuli o‘ziga xos badiiy yaxlitlikni ta‘minlaydi. Asar Sulton Husayn Boyqaro va Amir Alisherning yaqin do‘sti Pahlavon Muhammadni so‘nggi manzilga kuzatish sahnasidan boshlanadi — bu lavha insoniy iztirob, sadoqat va yo‘qotish og‘rig‘ining chuqur badiiy ifodasiga aylanadi. Shu orqali yozuvchi syujet va kompozitsiyaning bir butun uyg‘unligini yaratib, asarning ichki drammatizmini tabiiy tarzda ochadi. Adibning ijodiy konsepsiyasida inson irodasining badiiy talqini uch asosiy qatlamda namoyon bo‘ladi: avvalo, ruhiy taranglikning boshlangan nuqtasida psixologik kuchlanish paydo bo‘ladi; keyin, tarixiy shaxsning metin irodasi va ichki ziddiyatlari tasvirlanadi; nihoyat, saltanatni saqlab qolish yo‘lida uch buyuk do‘st — Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy va Pahlavon Muhammadning o‘zaro sadoqati ko‘rsatiladi. Yozuvchi bu jarayonni murakkab badiiy tahlil bilan

¹⁵ Boboxonov M. O‘zbek qissalarida badiiy psixologizm. – T.: Bayoz, 2014. – B. 42.

¹⁶ Asad Dilmurod. Pahlavon Muhammad. – Toshkent: Shark, 2006. – B. 7-8.

yoritib, o'quvchini matnning ichki qatlamlarini chuqur his etishga, uni sabr bilan mutolaa qilishga chorlaydi.

Bobning uchinchi fasli **“Rang va mehvar” romanida ramziylik**” deb nomlandi. Ushbu faslda Asad Dilmurod turli janrlarda — hikoya, qissa va romanlarda o'zining boy badiiy tajribasini namoyish etgani, uning “Rang va mehvar” singari asarlari o'zbek adabiyotida modernizm va postmodernizm yo'nalishlarining shakllanishiga turtki bo'lgani va bu romanlarda muallif hayotning ziddiyatli manzaralarini, insonning ichki dunyosi, ruhiy parokandaligi va ma'naviy izlanishlarini falsafiy ifodalar bilan boyitganiga diqqat qaratilgan. Shu sababli, adabiyotshunoslikda Asad Dilmurod ijodi ko'pincha “ramziy tafakkurga asoslangan o'zbek nasrining yangi bosqichi” sifatida talqin qilinadi. Adibning o'ziga xosligi shundaki, u jahon adabiyoti klassiklaridan — Kafka, Kamyu, Joys singari yozuvchilardan ilhomlanar, biroq ularning falsafasini ko'r-ko'rona takrorlamas edi. Asad Dilmurod ularning badiiy uslubidan faqat inson ruhiyatini tahlil etishdagi noziklik, vaqt va makonning murakkab uyg'unligi kabi jihatlarni o'zlashtirib, o'z milliy zaminiga moslashtirgan. Shu yo'l bilan u o'zbek nasrida ilgari kam qo'llanilgan ichki monolog, badiiy ramz va metaforik tafakkurni kuchaytirdi.

“Rang va mehvar” romanida shaxs fojeasi, nafs qutqusiga uchgan olomonchilik kayfiyati zuhur topadi. Ya'ni Komron Vali singari iste'dodlarning turli davrlarda oyog'iga tushov bo'layotgan jamiyat korchalonlarining qilmishlari mohirlik bilan ochib beriladi. Asad Dilmurodning poetik mahorati talqin va tasvirda G'arb adabiy an'alarini sintezlash mobaynida o'ziga xos bir tasvir usulini topganligini anglash lozim. Bu, birinchidan, Komron ruhiyatida kechuvchi abadiy sokinlik va ruhiy to'liqish, Sanam tiynatidagi shaytoniy sifatning adashtiruvchi mavqeda turishi, zo'ravonlik ramzi sifatida To'ra va Nosir botinidagi tashqi olamga murosasiz jangi tarzida yanada ishonarli yuzaga chiqadi.

Asarning ramzlar tilida ifodalanishida ham ramziy ma'no mujassam ekanligini unutmagan holda, Q.Yo'ldoshevning roman haqidagi fikrlariga diqqat qaratamiz: “Romanda fabula yo'q, ya'ni asarda peronajlar boshidan o'tgan voqealar tasvirlanmagan, balki qachondir bo'lib o'tgan voqealarning timsollar ruhiyatidagi izlari retrospektiv yo'sinda aks ettirilgan. Qahramonlar kecha, bugun, ertaga singari alohida uch o'lchamga ega olamda emas, balki bularning bari aralashib ketgan va kechadan bugunga, reallikdan tushga o'tib ketaveradigan aralash o'lchamli dunyo og'ushida aks ettiriladi. Bu holning formal mantiq talabiga bo'ysunish kerak bo'lgan fabula bag'riga sig'masligi tabiiy va shu bois yozuvchi personajlarining nima qilganini ko'rsatishga qaraganda, ularning ruhiyatida nimalar kechganini tasvirlashga ko'proq diqqat qaratadi”¹⁷. E'tiborga loyiq jihati shuki, roman muqaddimasidagi makon – “Zarband tog'lari poyida yotgan kichik shahar tun og'ushida mudrab yotgan”ligini tanishtirish bilan boshlanadi. Uxlayotgan kichkina shaharning Komron Valining xayol va hayot og'ushida kechayotgan “aralash-quralash” orzulari-yu, umidlari, parokanda bo'lgan yoshlikning sog'inchga limmo-lim beg'ubor lahzalari qahramonga sira tinchlik bermaydi. Asarning – ichki

¹⁷Йўлдошев Қ. Аниқликка хизмат қилган мавҳумлик // Романга ёзилган сўз боши. Шарқ юлдузи. 2012. №.5. – Б. 13-14.

musiqiyligi to‘laqonli ramzlar tilida yangraydi. Uni topish va his qilish uchun inson qalbidagi ilohiy axloq poydevorining mustahkam bo‘lishi talab qilinadi.

Yozuvchi Asad Dilmurodning “Rang va mehvar” romanida ko‘zga ko‘ringan va uni hazm qilishda murakkablik qiladigan jihatlardan biri shuki, tasvirdan-tasvirga tez-tez o‘rin almashinib turishdir. Masalan, asarda bosh qahramon Kamron ruhiyatidagi uzil-kesil o‘zgarishlar atrofda qanday aks-sado bersa o‘shaning tasviriga o‘rin bo‘shatib beradi. Buni quyidagi tasvirda ham ko‘rishimiz mumkin:

“Qadimda qo‘lida kamon yoki cholg‘u asbobi ushlagan navqiron yigit tarzida tasavvur qilingan Apollonni nechun esladi, bir necha marta uni o‘shanday holatda chizishga urinib ko‘rgan, lekin qoniqish hosil qiladigan darajada eplolmagan, bir necha xomakisini saqlab qo‘yibdi. Zahirasi umuman ko‘p chakki emas, studentlik davridan to hozirga qadar yaratilgan, sotilmay yoki muzeyga topshirilmay qolgan bir qancha kartinasi to‘plangan bo‘lib, har biri hayotidagi biron voqeani eslatadi. Hozir Apollon arvohi afsun qilganday, to‘q pushti gullagan cho‘zinchoq kunda, shoxlari yerga sanchilib kirgan, ildizlari havoda muallaq daraxt, og‘zidan ilon tortib chiqarayotgan afsungar, yelimqog‘oz bilan tumshug‘i bog‘langan to‘ti, qaychisini yiltiratib musicha qanotini qirqayotgan bolakay, chaqir tikan uyumida chalqancha yotgan va yalang‘och badanini devpechak o‘ragan pahlavon tasvirlari – barisi yashilu sarig‘u qirmizi cho‘g‘lanmish va eng chetda turgan Jilg‘a atalmish kartina kamalak tusida...”¹⁸.

Asad Dilmurod qadimgi yunon tasviriy san’atida haqiqatdan ham, qo‘lida o‘q yoy va musiqa asbobini ushlab turgan yosh yigit qiyofasida paydo bo‘lishiga ishora qilarkan, Komron ruhiyatida kechayotgan ichki qoniqmaslik tuyg‘usini o‘quvchiga juda sirli qilib tasvirlaydi.

Shuni qayd etish joizki, “Freyd XX asrga xos yovuzlik, qullik, mutelik, ruhiy kasalliklar, axloqiy buzilishlar, ma’naviy yuzsizliklar, e’tiqodsizlik va imon sustligini insonning ichki istak kechinmalariga e’tiborsizligi yoki bu kechinmalarni zo‘rlilik bilan jilovlab qo‘yishda deb tushuntiradi... Freyd, Yung va boshqa psixoanalitik maktab vakillari tushni tahlil qilib, undagi ramzlar miqlardagi ramzlar bilan vazifa jihatidan o‘xshashligini kashf etdilar hamda tushni sharhlash miqlarni sharhlashni osonlashtiradi, degan qarashni o‘rtaga tashlaydilar”¹⁹. Ko‘rinadiki, badiiy asardagi universal ramzning har qanday vaziyatda syujetga aloqador bo‘lgan tasviriy usullarning yaxlitlashuvida orttirilgan ijodiy tajriba bugungi kun nasrida o‘ziga xos mavqega ko‘tarilish yasadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Badiiylik uslub va ijodkor dunyoqarashini uyg‘unlashtirish sintezi**” deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli “**Hikoyada shaxs konsepsiyasi uslub modifikatsiyasi**” deb atalib, yozuvchining asarlari hikoyadan – qissaga, qissadan – romanga, romandan – essega tomon o‘sib boruvchi badiiy uslubi ikki yo‘sinda: tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima, hayotiy ziddiyatlar hamda ko‘hna tarix obidalaridan xabar beruvchi asarlar negizida sayqallanib borganligi tahlil qilinadi. Ma’lumki, badiiy adabiyotda modifikatsiya hodisasi – o‘zgaruvchan ahamiyat kasb etadi. Darvoqe, hikoya yoki roman, qissada mazkur masala turli xil

¹⁸ Asad Dilmurod. Rang va mehvar // Шарқ юлдузи. 2012 й. №5. – Б.13.

¹⁹ Жаббор Эшонкул. Фольклор, образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. – Б. 104-105.

darajada farqlanadi. U ijodkorning olam va odamni tasvirlashdagi tafakkur sarhadlarining chuqurligi va o'ziga xosligi bilan belgilanadi: "**Modus** – o'lchov, mezon, usul, yo'l, tariqa, tarz degan ma'nolarni bildirib keladi. Predmetning muayyan holatlardagi xususiyatini ifodalaydi. **Atribut** (o'ziga xoslik)dan shu jihati bilan farq qiladi. Spinozaga ko'ra, modus substansiyaning barcha o'tkinchi (ko'chuvchi) holatlarini ifodalovchi vosita hisoblanadi."²⁰, - deya "Falsafa lug'at"da izoh berilgan. Bu hodisaning zamirida har bir yozuvchi o'zining individual uslubini topa olgan, degan o'tkir falsafiy aqida ko'z oldimizda gavdalanadi. Adibning "Qo'ng'iroq" nomli hikoyasi ushbu faslda tahlil qilinib, keltirilgan fikrlar dalillangan. Tahlillardan kelib chiqib, yozuvchining badiiy uslubini quyidagi tavsiflarda ham o'ziga xos tarzda talqin etishimiz mumkin:

1. *Yozuvchi ilk jumla, hikoyadagi tugun, tugundan keyin keluvchi kompozitsion vositalarni ko'pincha o'zining nutqi orqali tushuncha berishdan boshlaydi.*

2. *Adib ko'p hollarda avval g'oyani aniqlashtirib, syujetga evrilish bosqichlariga to'xtalib o'tsa, mavhum qoliplash uslubi F.Kafka, Borxes, A.Kamyu, Dostoyevskiy kabi jahon adiblari uslubini eksperiment qilganligida qabarib ko'rinadi.*

3. *Yozuvchining 1980-yillardagi ilk ijodiy izlanishlarida o'zi tug'ilib o'sgan Samarqand qishloqlari, talabalik davridagi oddiy qishloq odamlarining hayot kechirishi, o'zi tanigan, bilgan va yaqindan xarakterlarini o'rgangan hamqishloqlari tabiatini talqin etganligida seziladi.*

4. *Yozuvchi keyinchalik jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishuvi natijasida, ayniqsa, G'arb va Amerika badiiy tafakkurininng o'zbek adabiyotiga rus tili yoki to'g'ridan to'g'ri kirib kelishi bilan bog'liq stereotiplar fonida o'zlashtirilishida ochiqatlanadi.*

5. *Badiiy uslubning ikki yo'sinda: tarixiy haqiqat va badiiy to'qima, hayotiy ziddiyatlar hamda ko'hna tarix obidalaridan xabar beruvchi asarlar negizida sayqallab borganligidan dalolat beradi.*

6. *Adib o'ziga haqiqat deb bilgan mifologik kartinalardan o'quvchining fikrlash kreativligini rivojlantirishga mantiqiy urg'u berganligida yuzaga chiqadi.*

Mana shu tasniflarning o'ziyoq yozuvchi ijodiy uslubi va shaxs konsepsiyasi tig'izlashuvini to'laqonli dalolatlab, insoniyat oldida turgan olamshumul muammolar mohiyatini xilma-xil obrazlarda keng istifoda qilish tamoyilini tartiblashuviga katta zamin hozirlaydi.

Bobning ikkinchi fasli "**Ijodiy individuallikni yuzaga chiqaruvchi komponentlar uzviyligi**" deya atalib, ushbu faslda Asad Dilmurod ijodiga Frans Kafka an'alarining ijodiy ta'siri va yozuvchining o'ziga xos uslub yaratgani haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Asad Dilmurodning "Armon qushlari" hikoyasi tahlili orqali ijodkorning badiiy konsepsiyasi tarix va bugun orasidagi ajdodlardan o'tib kelayotgan tragik voqelikni silliq ravishda aks ettira olish ekanligi yoritilgan.

Adabiy jarayonni kuzatishimiz natijasida shu holat oydinlashadiki, Kafka an'analari nafaqat Asad Dilmurod, balki Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Shodiqul Hamro, Salomat Vafo kabi yozuvchilar

²⁰ Философский словарь. – М.: Политиздат, 1987. – С. 290.

ijodida yanada bo‘y ko‘rsatdi. Bu an‘ana Asad Dilmurodning “Rang va mehvar”, “Xilvat” to‘plamidagi bir-birini mutlaqo takrorlamaydigan hikoyalar timsolida yanada go‘zal mohiyatga aylandi. Har bir yozuvchi ijodiy individuallik sari intilib yashaydi. Bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar modifikatsiyasida har bir qahramon o‘zining erkin harakatini namoyish qiladi. Ayni damda, insonning borliqqa bo‘lgan munosabatida ham o‘ziga xos bir ritmik xoslanganlik namoyon bo‘ladi. Aytish joizki, Asad Dilmurod hikoyalaridagi tagma‘no, F.Kafka, A.Kamyu, J.Joys, X.L.Borxes singari yozuvchilar ijodi bilan to‘yintirilgan adabiy uslublardir. Bularni o‘ziga xos tarzda jilvalantirish tarix-bugun-ertaga tarzida ifodalay olish ham katta mahoratni talab qiladi. Boshqacha aytganda, yozuvchi mifopoetik talqin qamrovini ramziy shtrixlar bilan payvandlay olganligida seziladi.

“Armon qushlari” hikoyasida bir oila va uning o‘z baxtidan mosuvo bo‘lgan Xumorning qismatiga mantiqiy urg‘u beriladi. Uning bebaxtligi ham usta Quli nafsoniyati sabab ro‘y berishini xilma-xil ong osti sezimlari bilan yuzaga chiqara olgan Asad Dilmurod ijodiy konsepsiyasining mevasi, deb qarash ishonchni oqlaydi. Inson bu dunyoga baxt izlab keladi hamda shu ehtiyoj bilan jazolanadi, degan hikmatlar bejiz aytilmaganiga imon keltiramiz. Ya‘ni, insonning qalbiga chizilgan muhabbat naqshi, har qanday balo-qazolar bilan ham o‘chmasligini va u abadiyatga olib boruvchi, Haq Taoloni tanishga yo‘naltiruvchi chiziqlar ekanligiga shak-shubha qilmaymiz.

G‘arb adabiy tafakkur durdonalarining Asad Dilmurod hikoya va yirik janrdagi asarlarida bo‘y ko‘rsatishi, unga ilhom bag‘ishlashi, milliy adabiy qahramonlarni yaratishga rag‘bat oshirishi sinalgan hodisaligi oydinlashgan. Frans Kafkaning “Evrilish” hikoyasidagi jamiyatga mansub Gregor Zamza taqdiri Asad Dilmurodning “Qo‘ng‘iroq”, “Armon qushlari” hikoyalaridagi badiiy-tasvir vositalari, insonning mifologiyaga oid qarashlarini, xarakterlararo o‘ziga xos ifodalarni ko‘z o‘ngimizda gavdalantiradi.

“Armon qushlari” hikoyasida bir-birini to‘ldiruvchi ikki tasvir predmeti ziddiyatga kirishadi. Tarix va bugun orasida kechadigan voqelik hikoyaning badiiy qoliplarini yaxlitlashtirishga xizmat qiladi. Hikoyada Xumor ismli qizga oshiq bo‘linishi, moziyning hali ochilmagan sir-sinoatidan bahra olish, boshqacha aytganda “bilinish”, “tanilish” istagi yaqqol ko‘zga ko‘rinadi. Hikoyadagi tasvir usuli – murakkab va mifopoetik talqin ustuvorligiga qarab o‘sib boradi. Mif – insonni o‘rab turgan muhit bo‘lsa, tasavvur uni qayta ishlashga sharoit yaratishga qodir bir tushunchalar yig‘indisidir. Demak, yozuvchi badiiy obrazni quyuqlashtirib, tarixiy-madaniy jabhadagi uzilishlarni, ko‘ngil ko‘zi bilan his etish muhimligini asoslagan.

Bobning **“Fano dashtidagi qush” romanida badiiy uslub va kompozitsion yaxlitlik**” deya nomlangan uchinchi faslida yozuvchining “Fano dashtidagi qush” romanidagi ramziylik va ijodiy individuallik konsepsiyasiga diqqat qaratilgan. Yozuvchi o‘zidan oldin yashab, ma‘rifat nurini avlodlarga meros tariqasida tortiq qilgan Jaloliddin Rumiy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar badiiy merosidan kitobxonga roman tartib beradi. Romanning an‘anadan – noan‘anaga o‘tish modusini shu qadar chigal so‘qmoqlarda

konsepsiyaga aylantiradiki, natijada, yozuvchining hech kimga o'xshamagan tasvir uslubini qayta-qayta va diqqat bilan mutolaa qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

“Fano dashtidagi qush” romanida Saidbek Umar obrazini qay tariqa yuzaga chiqarganini, asardagi xayoliy-romantik, mifologik lavhalarning nechog'li haqiqatga monandligini qiyosiy tahlillar asnosida o'rganish mumkin. I.Yoqubov “Fano va baqo oralig'ida” maqolasida “Fano dashtidagi qush” romanidagi Bo'ztoy bilan “Rang va mehvar”dagi bo'zbola Komron ikkisini qiyosan solishtiradi. Roman ifoda mustaqilligi bilan I.Sultonning “Ozod” romanidagi Ozod obrazini ham yodimizga soladi. Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy singari mutafakkir adiblarimizning ijodidan ilhomlanganligi shundoq tasvirlanayotgan imo-ishoralar, nozik o'xshatishlarda yaqqol seziladi. Asar qahramoni Saidbek Umarning xotiralari Yodgor bilan muloqot negizida qayta jonlanadi, parchalangan shaxs o'zining hayotini ruhiy zo'riqishlar orqali anglab yetadi. Alisher Navoiyning:

“Bu gulshan ichraki, yo'qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot”

mazmunidagi hikmatidan ta'sirlanish yozuvchini dunyoning o'tkinchi hoyu-havaslaridan boqiylikni faqat yaxshi nom chiqarish evaziga egallash muhimligini nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Chunki mana shu xususiyat Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida mavjud bo'lib, Asad Dilmurod Saidbek Umar ruhiyatini ana shu tamoyil, konsepsiya negizida ochib berishga erishgan.

Romanning qator kompozitsion ustqurmasi va badiiy g'oyasi haqida so'z yuritar ekan, munaqqid ikki jihatni yanada teran talqin qilish borasidagi qarashlarini uyg'unlashtirish lozimligini mantiqiy urg'ulaydi: birinchidan, romanning mumtoz alloma yoki mutafakkirlarning din va dunyoviy ilmlarni egallagan musulmon, chin taqvoli inson e'tiqodi hamisha zafar qozonishini, ikkinchidan, bunday odamlar jamiyatda hamma zamonlarda ta'qib va iztiroblar bilan kun kechirishini, sinovlarning ketma-ket kelishi, nafsni yengish maslagida turli xil bo'htonlaru g'iybatlarga duchor bo'lishini alohida uqtirib o'tadi.

“Fano dashtidagi qush” romanida yozuvchi ikki olam tiynatiga ramziy-majoziy yo'sinda nazar tashlaydi. Saidbek Umar timsolida fano va baqo o'rtasidagi mangu ayriliq, oxirat pardalarininng o'ziga xosligi, iymon va e'tiqod maslagi nuqtayi nazaridan munosabat bildiradi. Qahramonlarning tushuniksiz harakatlarida – voqelik asta-sekinlik bilan o'z mohiyatini ko'rsata boradi. Mana shu tamoyil yangi o'zbek romanchiligida ramziy metaforaning yangilanib borayotganidan darak beradi. Romanni anglash uchun mumtoz an'analar qa'ridagi og'riqli ma'nolarni ilg'ash muhimligi konseptual ahamiyat kasb etadi. Zero, Navoiy va uning zamonasidagi ulug' mutafakkirlar – eng ulug' visol Allohni tanishga olib boruvchi ulkan yo'l, komillik yo'li ekanligini tushunib yetgan odamlarning taqdiri zalvorli ekaniga ishonchdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi *“Yozuvchining syujet yaratish mahorati va badiiy xronotop uyg'unligi”* deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli *“Pahlavon Muhammad” romanida badiiy syujet va obrazlilik*” deb atalib, mazkur faslda ijodkorning tarixiy haqiqatni badiiylashtirib, universallik sari olib chiqishdagi yuksak mahorati tahlillar orqali ko'rsatib berilgan.

Yozuvchi Asad Dilmurod “Pahlavon Muhammad” romanida vaqtning tizginsiz silsilasida kechuvchi har qanday ziddiyatlarni ikkala do‘st taqdiridan ayro tasavvur qilmagan holda yoritishga harakat qiladi:

“Yana Pahlavon xayoli uzoqqa ketdi.

Esida, Hind qoplonini yengib, faqat ulus emas, Bobur Mirzo nazariga ham tushgandan keyin eng mas’ud kunlari boshlandi. Himmati baland shoh da’vati bilan qadami yetmagan xorijiy yurt deyarli qolmadi. Goh Hind, goh Xitoy, goh Qoshg‘ar, goh Eronu Rumda kechgan muhorabadan kifti yer iskamay Mashhadga qaytar, Bobur Mirzo bilan baravar Husayn Mirzo va Alisherbek tahsiniga sazovor bo‘lar edi. Husayn Mirzo bilan Alisherbek davrasiga yaqinlashgani sayin omadi tag‘in yurishdi. Bir qarasa shogird, bir qarasa ustoz bo‘ldi. Mir Buzruk Termiziy shifoati bilan nazm va navo bobida erishgan ilmu amali barchani sehrlar, binobarin, Bobur Mirzo ulug‘ zotlar ishtirok etadigan majlislariga chorlashni unutmadi.

Navbatdagi mujdani olgan Pahlavon dil chigilini yozadigan jonon suhbatlar, aqlu idrokni peshlaydigan qizg‘in munozaralar, cheksiz zavqu shavq ulashadigan mushoiralarga orzumand bo‘lib hamishagidek terisiga sig‘may quvondi. Afsuski, oshig‘inch kelib zil-zambil sukunat cho‘kkan, sonsiz shamlar yoritgan muazzam saroyda aql bovar qilmas noxushlik ustidan chiqdi”²¹.

Lavhada ko‘rinadiki, Pahlavon Muhammadning hindistonlik Ibrohim Bekpo‘lat bilan kurash tutib, Vatanini qo‘msab yashayotgan Bobur Mirzoning sharafiga katta quvonch hadya etgani, Sohibqiron Amir Temur davlatchiligining hali o‘z mohiyatini yo‘qotmagani, ora-sira baxil va g‘anim Abusaid Mirzo kabi dilxiralik qilmas do‘stlarini qo‘msardi. Pahlavon Muhammad Alisherbek huzurida bo‘lganida yanada kuch g‘ayrat-u shijotga to‘lar, o‘z yaqinlaridan olgan mehr-shafqatni Vatan taraqqiyoti yo‘lida fido qilishga tayyor zot edi. Mana shuning uchun ham Pahlavon Muhammadning Xuroson-u Hindistonda va boshqa o‘lkalarda shuhrati baland bo‘lib borardi.

Yozuvchi tarixiy voqelikni saralab, sintezlar ekan, uning nokeraklaridan voz kecha bilishi ham zarur. Tarixiy romanda Pahlavon Muhammad obraziga keladigan bo‘lsak, quyidagi tasnifiy iqrorlar real mohiyat kasb etadi:

1. Yozuvchi Pahlavon Muhammadning kuragi yerga tegmagan jasorat sohibi ekanligiga olib boruvchi har qanday tasvir ifodalarni sintezlaydi.

2. Alisher Navoiy shaxsiyatiga yaqinlashtirish va uning chinakam do‘stlik ifodasini, birodarlik sharafiga tasvirlash mobaynida, so‘zga chechanlik bobida ham chuqur falsafiy-psixologik tarang vaziyatlardan olib chiqishga bel bog‘laydi.

3. Hindistonga borib, kurash tushgan damlarini tasvirlaganida Bobur Mirzo olqishi va sharafiga o‘zining farzandlik burchi hamda sadoqati tarzida yangidan “kashf” qiladi.

4. Hirot-u Xuroson va ko‘plab mamlakatlarni zabt etgan jasorat timsoliga aylangan qahramonning hayoti bir maromda kechmasligini, g‘anim lashkarlari kabi dushmanlar, ig‘vogarlar, chaqimchilarning yetkazgan jarohatlarini ham butun murakkabligicha yoritib boradi.

²¹ Asad Dilmurod. Paхlavon Muхammad. – Toshkent: Sharq, 2006. – B.100.

Shuni qayd etish lozimki, xarakterni shakllantirish uchun yozuvchi turmushning ikir-chikirlarigacha teran o'rganishi muhim, natijada, o'zi xohlagan yo'sinda voqelikni yuksak darajaga olib chiqa oladi. Xarakter badiiy asarda pafos darajasida bo'lishi lozim, chunki pafos yozuvchi niyati va voqelik izchilligini o'z nazoratiga oladi. Yozuvchi Asad Dilmurod roman-u hikoyalarida badiiylik modusi xarakter birligi va pafos uyg'unligida psixologik vaziyatning muvofiqligini namoyon etishga safarbar qilinadi. Asad Dilmurod nafaqat ramziy-majoziy, balki tarixiy romanlar bilan ham o'z ijodiy tafakkurini namoyon eta oldi. Alisher Navoiy davrini, uning do'stlari, ayonlari xarakterlarini o'zida mujassam qila olgan "Pahlavon Muhammad" romani hayotiy ziddiyatlar ajv pallasiga chiqqan davrlarni o'z ichiga oladi. Romanda Asad Dilmurod har bir masalaga aql tarozusi, tarixiy faktlar bilan munosabat bildirganligida qabarib ko'rinadi. Ayni paytda, roman arxitektonikasida insoniy munosabatlar, o'z davrining kuchli shoiri, kuchli pahlavoni Navoiy, Pahlavon Muhammad obrazlarida yaqqol seziladi. Tarixiy haqiqat, toj-u taxt uchun ziddiyatlar, kurashlar, Husayn Bayqoroning do'st-u dushmanlari, suiqasdlar, bir-birilarini sotishlar mana shu roman qiymatini oshirib, yanada mukammal yuzaga chiqishiga zamin yaratadi.

Bobning "*Yozuvchi asarlarida xronotop shakllari va badiiylik modusi*" deb atalgan ikkinchi faslida badiiy xronotopning roman strukturasi aks etish modifikatsiyasini turli shakllari mavjudligini aniqlashga harakat qilingan. Asad Dilmurodning "Pahlavon Muhammad" romanida – yo'l xronotopi juda katta epik ko'lamda kechadigan voqelik konsepsiyasini hal bo'lishiga sababdir. Chunki Pahlavon Muhammad shaxsiyati bilan bog'liq voqealar tizmasida yozuvchi universal talqinga murojaat qiladi. Bitta tafsilotni hikoya qilib, ikkinchi bir tafsilotga o'tish manersaning uzviyligida qabarib ko'rinadi:

"Go'dakligida, beshikni tark etib, atak-chechak yura boshlaganda padari bir necha oy onasidan ajratib olgan, toqqa olib ketgan, zax-nam sirqib turadigan nim qorong'i g'orda uzluksiz kiyik va kaklik go'shti bilan boqqan ekan, hatto ayiq va bo'ri qoni bilan omuxta qilingan ilon moyida yo'lbars yuragini qovurib berganini aytgani ham esida..."

Pahlavon och-nahor tun bo'yi yo'l bosdi, tong-ozonda ko'kka o'rlayotgan quyuq tutunni va kir etagida tutdek to'kilib-sochilib yotgan vayronani ko'rdi! Hayhot! Bu ne ko'rgilik? Yurak-bag'ri qiymalangan ko'yi ko'zlarini yumib-ochdi. Xudo haqi ko'zlari sira aldayotgani yo'q: qachondir padari kushtirgilar jamoasi boshini qovushtirib qurdirgan qishloq – Polvonota kuli ko'kka sovurilmish! Do'sti qadrdoni Pahlavon Muhammad Moloniy xatida bitilgan xabarlar bari rostga o'xshaydi. Xarobalar ichra bir zog' yo'qligiga qaraganda barcha chindan ham qaygadir badarg'a bo'lgan, lekin qayga? Nahotki valine'mati ham yoru birodarlari qatori qishlog'idan ixroj qilinmish? Qachondir yot o'lkalarda xoru zorlikda umr kechirganlari kam edimi, Xalloqi olam?!"²².

Romanning "*Buzrukvor*" nomli ilk bobida Pahlavon Muhammadning dahshatli quyun orasida qolishi, uning xaloskori faqat Alloh ekanligini, hamda bolaligi, uni birinchi yordam bergan Zulfizarning kutilmaganda paydo bo'lishi – yo'l xronotopini

²² Asad Дилмурод. Пахлавон Муҳаммад. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.16.

reallashtiradi. Yozuvchi ilk asos – syujetning yanada ishonchli chiqishida Pahlavonning otasi, nasl-nasabi, hayot haqidagi o‘zining qarashlarini ifodalarkan, yo‘lga chiqqan qahramonlar tabiatida nimaiki sodir bo‘lsa, o‘sha mezondan turib yoritishga harakat qiladi. Mana shu jihatdan, Asad Dilmurod xronotop poetikasini – Pahlavonning qanday azob va uqubatlarda voyaga yetganini mifopoetik rakursda ochiqlashga e‘tiborni kuchaytiradi. Aslida, ota pandini olib katta bo‘lish, Alloh roziligi yo‘lida harakat qilish bilan barobar ekanligini mantiqiy urg‘ulaydi.

Xronotop poetikasi bilan maxsus katta tadqiqot olib borgan rus munaqqidi M.Baxtin: “Tarixiy voqelikdan ajratib bo‘lmaydigan biografik zamon voqelikka nisbatan qaytarilmasdir. Xarakter xususiyatlarining o‘zi xronologiyadan xoli, ular zamon aro maydonga keladi. Xarakterning ochilish yo‘li uning tarixiy voqelikka yondosh holatda o‘zgarishga, qayta shakllanishiga emas, balki faqat uning tugallanishiga, demaki, avvaldanoq chizgi berila boshlangan shu shaklni to‘lg‘azishga olib boradi. Plutarx biografik tipi shunday”²³ kabi fikrlarni taqdim qilgan. Yozuvchi romanda xronotop shakllarini tasvirlar ekan, badiiy makon va zamonning aniqlik tamoyiliga munosabat bildiradi. Xotira xronotopida Pahlavon Muhammadning bolaligiga qaytishini tasvirlaydi, Zulfizar oralaridagi samimiy munosabatning qahramon ongida yashab kelayotgan kechinmalarni real talqin qiladi. Romanda uchrashuv xronotopi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman, badiiy xronotopning o‘ziga xos qirralari adib asarlarida alohida ahamiyatga ega va tarixiy davrni yaxshigina anglagan yozuvchi katta umumlashmalar yasay olgan.

²³ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 114.

XULOSA

Olib borilgan nazariy-ilmiiy masalalarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. XX asr boshida Abdulla Qodiriy boshlab bergan “yangi roman tipi” dagi asarlar asrning 60-yillaridan keyin yangicha uslubda jahon klassiklari ta’sirida yanada taraqqiy eta boshladi. XX asrning 70-yillarida va mustaqillik davrida adabiyotimizga kirib kelgan yozuvchilar asarlarining har bir talqinida milliy nasr badiiy takomillashuviga hissa qo’shdi. M.M.Do’st, E.A’zam, A.Dilmurod, N.Eshonqul, Sh.Hamro, U.Hamdani singari yozuvchilar istiqloq yillarida ham tarix, ham zamon, ham davrning o’ziga xos qirralarini, kayfiyatini ifoda etish yo’lidan bordilar. Asad Dilmurod rang-barang qissa va romanlari bilan badiiy konstruksiyani tamomila o’zgarishga katta zamin yaratdi.

2. Asad Dilmurod o’zbek adabiyotiga ilk hikoyalari bilan kirib kelgan Samarqand koloritini ijodiga singdirgan sanoqli adiblardan biri hisoblanadi. Hikoyalari garchi maishiy hayot zamirida qurilgan bo’lsa-da, tasvir etikasida jahonbop asarlar sintezi qabarib ko’rinadi. Hayotning barcha puchmoqlarini teran aks ettirish Asad Dilmurodning falsafiy-manerasida yaqqol ko’zga tashlanadi. Dunyo adabiyoti o’zining har bir o’lchami bilan aks ettirish muammoning ildiziga teran kirib borishga yetaklaydi. Asad Dilmurod hikoyadan – qissaga, qissadan – romanga tomon falsafiy-estetik, psixologik talqin qamrovini anchayin kengaytirdi. U yaratgan personajlar oddiy maishiy qahramonlar emas, falsafiy fikr yurituvchi, tafakkur sohiblaridir. Bu tomondan olib qaralsa, inson fenomeniga alohida bir muhabbat bilan yondoshadi.

3. Asad Dilmurodning “Rang va mehvar” romanida badiiy psixologizm va portret tasviri insoniy munosabatlar tig’izligini yuzaga chiqaradi. Roman garchi majoziy-ramziy yo’sinda ifoda qilinsa-da, undan olinadigan har bir ibrat, o’git, zamon tegrasida fikrlovchi inson qalbini parmalab tashlaydi. Roman juda og’ir o’qiladi. Ranglar va uning inson orzularini ro’yobga chiqarish fenomeni darajasiga ko’tariladi. Demak, yozuvchi hayot haqiqatini majozga aylantirgan. Undan unumli foydalanish, vaqtning tuzalmasligini, inson xatolaridan o’zi xulosa chiqarishini kafolatlaydi. Obrazlarda rivoyat va mifga katta e’tibor qaratadi. Ayniqsa, yozuvchi bu kabi romanini J.Joys, F.Kafka olib borgan tadqiqotlardan oziqlantiradi.

4. Tarixiy asar yozish zahmattalab, murakkab jarayondir. Negaki, tarixiy sharoit taqozosi, vaziyat va holat uyg’unligini ta’min etish yozuvchining badiiy mahoratiga bog’liq. Ayniqsa, tarix – faktlarga, adabiyot – fantaziyaga tayanib ish ko’rishini inobatga olsak, muammo zalvori o’zining ko’lamini idroklashga keng yo’l ochadi. XX asr boshlarida Qodiriy, Cho’lpon kabi jadid yozuvchilar tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirib, romanchilik ufqlarining kengayishiga zamin hozirladi. Bunday iqtidor egalarining izlanishlari keyingi yillarda yanada teranroq o’rganilmoqda. Aynan jadidlar boshlab bergan misli ko’rilmagan ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo’lib qolishi tayin. Tarixiy roman genezisi o’zbek adabiyotida A.Qodiriyning muhtasham obidasi “O’tkan kunlar”i bilan boshlangan bo’lsa, masalaga teranroq rakursdan yondashish ehtiyojini keltirib chiqarishi tayin.

5. Tarixiy romanchilikda an'ana va noan'ana oraliq'idagi chegarani aniqlab olish muammoning ildiziga teran kirib borishga undaydi. Chunonchi, istiqlol davrigacha tarix faqat bir tomonlama, ya'ni kommunistik mafkura negizida shakllantirildi va shu yo'sinda ijodkorlar oldiga mafkuraviy tazyiq o'tkazilib, "buyurtma"lar berildi. Bu oraliqda yuzlab tarixiy romanlar davrning, mafkuraning qurboniga, zulmning inqirozi bilan yo'qlikka aylandi. Ana shu tamoyil o'zbek tarixiy romanchiligida katta uzilish maydonini hosil qildi. Bu uzilish esa hayot haqiqatini bo'rttirib, tarixiy shaxslarni yovuz, bosqinchi, islomiy g'oyalarni targ'ib qiluvchi, inqilobiy o'zgarishlarga qarshi deya baholadi, hamda shu yo'sinda sun'iy qahramonlar yaratildi. Bosqinchilik kayfiyati sho'ro adabiyoti vakillarining asarlariga to'g'ridan to'g'ri ko'chib o'tdi. Natijada poetik talqinga putur yetdi. Saviyaning sayozlashuvi badiiy matnning sayozlashuviga olib kelishi o'z isbotini topdi.

6. XX asrdagi kabi hech bir davrda insoniyat bunday olamshumul o'zgarishlarni, og'riqlarni-yu yo'qotishlarni, zulmlarni-yu iztiroblarni boshidan kechirgan emas. Mana shu jarayonda jadid mutafakkirlari go'zal bir xayrli ishga qo'l urishi o'z yakuniga yetmadi. Faqatgina istiqlolga kelib – tarix boricha, o'zining asliyatcha talqin qilinishi kun tartibiga qo'yildi. To'g'ri, Muhammad Ali "Ulug' saltanat" tetralogiyasi bilan Amir Temur, Pirimqul Qodirov "Ona lochin vidosi" romani bilan Shohruh va Gavharshodbegim qismatini, Xayriddin Sultonov "Boburiynoma" memuari bilan Bobur obrazini gavdalantirib, yangicha talqin qilib, adabiyotdagi to'siqlarni parchalashga erishgan bo'lsa, yaqin yillarda Asad Dilmurod turkiy xalqlarning muhtasham obidalarini, Navoiy va Pahlavon Muhammadni millatimiz sha'ni va g'ururi olib borgan ezgu siyosatni qalamga olib, yangicha tarzda o'zbek kitobxonlariga yetkazdi.

7. Asad Dilmurodning har uchala romanida syujet va kompozitsiya, badiiy xarakter va psixologizm, ijodkor fitrati va nuqtayi nazar formulasi o'z maromida bo'lgan ijodkor tafakkurining estetik mahsuli sifatida qayd etish mumkin. Badiiy xronotop esa badiiy xarakter va ruhiy tahlilni uyg'unlashtirib, konseptual qarashlarni namoyon qiladi. Mazkur romanlar yangi o'zbek nasrida o'ziga xos o'rin egalladi. Yozuvchining falsafiy-estetik dunyoqarashi har uchala roman poetikasida uslubiy-shakliy o'ziga xoslik, mavzu va g'oyaviylik nuqtayi nazaridan alohida ajralib turadi.

8. Hozirgi o'zbek romanchiligida mifologik obraz talqiniga doir izlanishlar keyingi yillarda anchayin mukammalashib bormoqda. Yozuvchi Asad Dilmurod o'z qurbi-idroki bilan so'z aytar ekan, har bir masalaga milliy mental xususiyatlar negizida baho berishni odat qilganligida seziladi. Ayni damda, inson hamisha izlanishga o'zini safarbar etar ekan, yangi-yangi ufqlarni zabt etish payida bo'ladi. Yozuvchi badiiy kredosi talqin va tasvir uzviylikini ta'minlab, xilma-xil mantiqning dialektik birligini yuzaga chiqarishini to'laqonli isbotlab bera oldi.

9. Aytish joizki, XX asr ibtidosidagi Kafka yoki Kamyu, Prust yoki Joys olib borgan yangilanishlar modifikatsiyasi, klassik davr Yevropa adabiyotining mantiqiy davomi bo'lishi bilan bir qatorda, turli xil shtrixlarni bergan ifoda madaniyati ham sanaladi. Mifologik tabdil negizida olam va odam munosabatlari Asad Dilmurod asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksincha, o'zbek adabiyotining rivojiga katta

ulush bo'lib qo'shiladi. Demak, Kafka yo'li, Kamyu yo'li yoki Joys an'analari sintezi adib Asad Dilmurod izlanishlarida katta impuls bergan bo'lsa, uni bugungi qiyofasiga shunchalik jozibadorlik baxsh etganligida deb bilish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

ТОИРОВА ЗУБАЙДА ОМОНГАЛДИЕВНА

**КОНЦЕПЦИЯ СИМВОЛИЧНОСТИ И ТВОРЧЕСКОЙ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ В
МОДУСЕ ПОЭТИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ
(на материале творчества Асада Дильмурода)**

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ургенч – 2026

Тема диссертационной работы доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2025.2.PhD/Fil6078.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете им. Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (русском, узбекском, английском (резюме)) на веб-странице научного совета (www.urdu.uz), а также на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:	Сариев Санъатжон Матчонбоевич доктор филол. наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	Матёкубова Тозагуль Раджаповна, доктор филологических наук, доцент Отажонова Манзура Оманбоевна доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	Нукусский государственный педагогический институт имени Аджиннияза

Защита диссертации состоится « 7 » мая 2026 г. в 11 : 00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 по присуждению ученой степени при Ургенчском государственном университете им. Абу Райхана Беруни (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14). Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета им. Абу Райхана Беруни (зарегистрирована за № Д-976). (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00). e-mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан « 17 » апреля 2026 г.

(Протокол реестра рассылки № 88 от « 17 » апреля 2026 г.)



Д. К. Гайипов,
Председатель научного совета по присуждению ученой степени, доктор филол. наук, профессор

С. С. Атажонов,
Учредитель, секретарь научного совета по присуждению ученой степени, доктор философии (PhD) по филол. наукам, доцент

А. И. Примов,
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученой степени, доктор филол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мировом литературоведении поэтическая интерпретация художественного текста, выявление его символических уровней и определение индивидуальной эстетической концепции автора рассматриваются как одно из значимых научных направлений. Процесс формально-стилистической стабилизации сопровождается существенным обновлением поэтики романа, что заметно влияет на развитие литературного процесса. Тенденции к интеграции глобальной картины мира в форме, содержании и способах выражения проявляются и в композиции современного романа. Особую значимость приобретает исследование функциональных и семантических возможностей символики в поэтическом мышлении и её связи с творческой индивидуальностью автора, что способствует углублению художественного анализа. Символ сегодня понимается не просто как декоративный элемент, но как модус поэтической интерпретации и один из факторов, определяющих творческую индивидуальность. В этом контексте выявление мировоззрения автора, его эстетического идеала и философских размышлений через систему символических образов представляет собой одну из актуальных задач современного литературоведения.

В мировой прозе всё более умело раскрываются попытки осмыслить функциональное значение средств художественного совершенствования жанра романа как литературно-эстетического явления. Первичные особенности, возникающие в процессе питания духовностью конкретного народа и нации, обеспечивают взаимное проникновение формы и содержания, создают условия для появления стремления к новому толкованию. Композиционное моделирование, метанарративы, выражение абстрактных понятий через глубокие переживания, а также поэтические интерпретации присущих роману художественных элементов способствуют устойчивости художественной структуры и определяются степенью адаптивности внутренних процессов к внешней среде. Особенно важно, что в романе всё чаще гармонично переплетаются сюжет и композиция, а их единство преобразуется в психологическую интерпретацию, что создаёт предпосылки для появления новых произведений в мировой литературе.

В узбекском литературоведении данное исследование, осуществлённое в модусе поэтической интерпретации символики и творческой индивидуальности, служит не только раскрытию художественно-эстетических особенностей творчества Асада Дильмурада, но и теоретическому обогащению вопросов символической поэтики, авторского стиля и индивидуальной творческой концепции. Анализируя прозу периода независимости, прежде всего бросается в глаза, что узбекский роман, не отступая от традиций, стремится к новому переосмыслению мира и человеческой судьбы на основе символично-метафорической интерпретации. В промежутке от «Минувших дней» А.Кадыри, заложившего основу национального романного искусства, до написанного в последние годы романа Н.Эшонкула «Гороглы» были созданы

тысячи художественных произведений. Однако поэтическая целостность многих текстов, их новаторская природа и художественная ценность зачастую, как продукт своего времени, естественным образом выходили из литературного оборота. Особенно это касается тех произведений, которые, напитавшись кровью традиций Востока и Запада и стремясь отразить новые жизненные реалии, всё же бесследно исчезли из литературной памяти. Следовательно, «внимание к литературе, искусству, культуре – это, прежде всего, внимание к нашему народу, к нашему будущему»¹ подчеркивает важную роль художественной литературы в воспитании молодого поколения. Исходя из изложенного, следует констатировать, что в творчестве Асада Дильмурада теоретико-эстетические основы символики и индивидуальной поэтической концепции до настоящего времени не стали предметом специального и всестороннего исследования, в ещё большей степени подчёркивает актуальность выбранной темы.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4797 «О создании Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои» от 13 мая 2016 года, № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» от 17 февраля 2017 года, № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, № ПП-3271 «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения» от 13 сентября 2017 года, а также в других нормативно-правовых актах по данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Термин «поэтика» – одна из проблем, которая находится в центре внимания не только литературоведения, но философии, этики и эстетики. В мировом и отечественном литературоведении данный термин изучается в разрезе жанров². Также в узбекском

¹ Мирзиёев Ш.М. Развитие литературы и искусства, культуры – важный фактор повышения духовности нашего народа // Из выступления Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева на встрече с представителями творческой интеллигенции Узбекистана // Халқ сўзи, 4 августа 2017 года.

² Аристотель. Поэтика. – Тошкент. Адабиёт ва санъат, 1980. – Б.151. Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1979. – Б. 262., Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1973. – С. 207., Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Наука, 1979. – С.422., Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л.: Наука, 1940. – С. 487., Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – Москва: Наука, 1976. –

литературоведении художественное качество произведения в определенной степени теоретически изучалось как объект исследования³. Особенно в области поэтики романа и его внутренних закономерностей, а также в связи с изменением эпох, сформировавшиеся представления и особенности литературного употребления приводят к возникновению новых определений. Например, художественная природа узбекского модернистского романа пока ещё ограничивается наблюдениями, высказанными в узком литературном кругу, и дискуссиями рекомендательного характера. Теоретические размышления, представленные в целостной форме, ещё не получили должного развития. Однако новые, нетрадиционные романы, созданные в последние годы, требуют отдельного исследования, что, в свою очередь, предполагает необходимость раскрытия сущности художественности: идеала и замысла писателя, его целей и устремлений, а также решения важнейших вопросов, связанных с судьбой человека.

В литературоведении периода независимости в Узбекистане особое внимание уделяется исследованию соотношения творческой индивидуальности и литературно-эстетических воззрений. В научных изысканиях представителей различных поколений, в частности рудах М.Кушджанова, Н.Каримова, О.Шарафиддинова, У.Норматова, А.Расулова, Б.Назарова, Х.Умурова, Х.Болтабоева, И.Хаккулова, К.Кахрамонова, К.Юлдошева, Д.Куронова, У.Улджабоева, У.Джуракулова, Б.Каримова, И.Якубова, А.Улгуова, М.Кучкаровой, Д.Холдорова, А.Хамрокулова и других в той или иной степени

